

Date: 5th March-2025

ULUG'BEK HAMDAMNING „OTA”ROMANIDA DAVR RUHI VA
QAHRAMONLAR TALQINI.

Esanova Sabrina Zavqiddin qizi

Buxoro davlat pedagogika insituti

„O'zbek tili va adabiyoti”yo'nalishi 1-bosqich magistri

[esanovasabrina7.@gmail.com](mailto:esanovasabrina7@gmail.com)

Annotatsiya: maqolada Ulug'bek Hamdamning „Ota” romanidagi davr ruhi va qahramonlari haqida izoh boradi.

Kalit so'zlar: urush, domla, azayimxon, folbin, qasos, nutq, o'ch, yong'in, vatan, xiyonat, vafo, farzand, pichoq.

Ulug'bek Hamdamning „Ota”romani O'zbek adabiyotida chuqur ma'nolar va murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzular yoritilga asar sifatida o'z o'rniga ega .Ulug'bek Hamdamning ushbu asarini o'qishni boshlashdan avval „Barcha otalarga bag'ishlanadi”satrlariga ko'zimiz tushadi.Sarlavha bizga O'tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“dagi”Barcha onalarga bag'ishlanadi” fikrini eslatadi.Tom ma'noda har ikkala asar o'zbek oilasining, qadriyatlar va urf-odatlaridan darak beradi.Roman nafaqat bir oila tarixi haqida,balki jamiyatning muayyan davrdagi ruhi,ijtimoiy va siyosiy muammolar haqida ham so'z yuritiladi.Romanda XX asr oxiri XXI asrning boshlari ,sovet davri tugashi va mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgani haqida so'z boradi.

Romanda ota obrazi orqali O'zbek oilalarga xos patriarxal qadriyatlar, ma'naviy kuch va oila markazida turgan ma'naviy qadriyatlarni ko'ramiz.Romanda O'zbek otalarining o'z jigar poralarining istiqboli uchun har qanday mushkulotni yengishga harakat qilishlari „Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib "qabilida yashashlariga urg'u beriladi.Lekin shunda ham yozuvchi O'zbek otasiga xos g'urur ,or - nomus masalasini unutmaydi. Sevinch tug'ilganda dunyolarga sig'magan Ota,uning ta'biri bilan aytganda” valadi zino”ga qo'l urgani uchun ayovsiz jazolaydi.Vaholanki biz Sevinch obrazi orqali baxtli bo'lishga to'liq haqqi bor ayolni tasavvur qilamiz.Otaning xatti -harakatlaridan esa nafaqat o'z qizini ,balki millat ayollarini xushyorlikka chorlaganini his qilamiz.Yana bir so'zimiz isbotini ushbu jumalardan anglashimiz mumkin.”Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo'lida edi-ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo'q, yo'q, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qattiq turmas ekan, dunyo ham o'z o'rnida turmaydi: buziladi-ketadi. Mana, men—seni ko'p yaxshi ko'rib yubordim. Yuzing kuyik, yuraging kuymasin dedim, erkaladim, papaladim. Xo'sh, nima bo'ldi keyin? Ko'chadan bola orttirding! Haromi deyishadi axir bunday bolani, haromi!.. Yo Alloh, qanday qilib yo'l qo'yding bunga? Endi qanday chidayman? Meni nevaram haromi bo'lib keladimi uyimga?!.. Yo'q, also mumkin emas!.. Bugun men bunga xo'p desam, ertaga yana boshqa biron qiladi bu ishni! Endi keyingisiga yo'l qo'ymayman! Odamlar xayolida “Shunday qilib bola tug'ish



Date: 5th March-2025



mumkin ekan” degan o’yni tag-tomiri bilan sug’urib tashlash uchun ota qilishi kerak bo’lgan ishni qilaman!.. Sevinch, shu choqqacha otang mehrini ko’rib kelding, endi qahrini ham ko’r!.. Shunga meni majbur qilganing uchun la’nat bo’lsin senga, la’nat bo’lsin bunday qismatga” degan o’ylar girdobida qoladi. Ushbu o’rindan biz millat erlari uchun or-nomus qanchalar muhim ekanligiga guvoh bo’lamiz .Bosh qahramonga Po’lat nomi berilishi qahramonning sinov va qiyinchiliklarga boy taqdiriga ishora qiladi.

Oychechak, Yog’du ona obrazlari orqali mehnatsevarlik, oilaparvarlik, sadoqat, vafo, sabr-toqat va mehr-muhabbat ramzini ko’rish mumkin. Ular oilaning birligini saqlashga urinadi va farzandlari bilan ota o’rtasidagi ziddiyatlarni yumshatishga intiladi. Ona obrazlari orqali yozuvchi an’anaviy o’zbek ayolining oiladagi o’rni va uning ichki kurashlarini tasvirlaydi. Romandagi yana bir obrazga nisbatan har bir asar mutolaasiga kirishgan inson qalbida nafrat paydo bo’ladi. Bu obraz Erboy obarizidir. Bu ismning tanlanishiga sabab er yigit bo’lishligi, xalq xizmatini qilishligi uchun edi. Lekin Erboy yoshlikdagi g’arazi sababli do’stiga yaxshigina “yordam bergan edi”. O’zining va do’stining, oilasini parokanda bo’lishiga Erboy tom ma’noda “erlik” qildi.

Romanda har bir qahramonning xatti-harakati, nutqi o’quvchini mushohada qilishga undaydi. Har biri asarga o’zgacha bir ko’rk bag’ishlaydi.

Romandagi qahramonlarning har biri o’z ichki kurashi orqali davrning qiyinchiliklari va o’zgarishlariga moslashish jarayonini aks ettiradi. Ularning hayoti va qarashlaridagi tafovutlar yozuvchining jamiyatdagi turli qatlamlar va ular duch kelayotgan muammolarni ko’rsatish maqsadini yoritadi.

Ulug’bek Hamdamning “Ota” romanidagi qahramonlar o’z davrining o’ziga xos timsollari sifatida xizmat qiladi. Ota obrazida an’anaviy qadriyatlarga sodiqlik va mas’uliyat ramzi ko’rsatilsa, farzandlar obrazlarida zamonaviy dunyoga, o’tkinchi hoyu-havasga berilishlari va qiyinchiliklarini ifodalaydi. Ushbu qahramonlar orqali yozuvchi avlodlar o’rtasidagi murakkab munosabatlarni va davrning ruhiy-ma’naviy muammolarini chuqur tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ulug’bek Hamdam „ Ota” romani - Toshkent. Yangi asr avlodi 2022-yil
2. Turdiyeva N. „Ulug’bek Hamdamning “Ota” romanidagi ota obrazi” .Toshkent.2022
3. Ulug’bek Hamdam “ Ota”. Toshkent, O’zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2015.
4. Ulug’bek Hamdam Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent.2002.